

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXLOQIY  
FAZILATLARINI IJODIY FAOLIYAT ORQALI SHAKLLANTIRISH**

***Ibragimova Dilbar Xamroqulovna***

*Termiz iqtisodiyod va serviz universiteti*

*Ta'lim va tarbiya nazaryysi va metodikasi*

*(Boshlang'ich ta'lim ) 1-kurs Magistiranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati yoritilgan. Ijodiy topshiriqlar, rasm chizish, ertak to'qish, sahna ko'rinishlari kabi faoliyat turlari orqali bolalarda burch, halollik, do'stlik, vatanparvarlik kabi axloqiy qadriyatlar rivojlantirilishi mumkinligi asoslab berilgan. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik yondashuvi va tarbiyaviy usullarining roli ham tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** axloqiy fazilatlar, ijodiy faoliyat, boshlang'ich sinf, tarbiya, halollik, burch, do'stlik

**Annotation:** This article highlights the importance of creative activities in developing moral values among primary school students. It is demonstrated that various creative tasks such as drawing, storytelling, and role-playing can nurture values like honesty, friendship, responsibility, and patriotism. The role of the teacher's pedagogical approach and educational strategies is also analyzed.

**Keywords:** moral values, creative activity, primary school, education, honesty, responsibility, friendship

**Аннотация:** В данной Статье освещается значение творческой деятельности в формировании нравственных качеств у учащихся начальных классов. Обосновано, что через такие виды творчества, как рисование, сочинение сказок, сценки, у детей можно развивать честность, дружбу, чувство долга и патриотизм. Также проанализирована роль

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

*педагогического подхода и воспитательных методов учителя.*

**Ключевые слова:** нравственные качества, творческая деятельность, начальная школа, воспитание, честность, долг, дружба

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda ularning yoshiga mos, qiziqarli va samarali metodlar orqali ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ijodiy faoliyat — bolalarning nafaqat estetik didini shakllantirish, balki ularni mehr-shafqatli, vatanparvar, halol va mehnatsevar insonlar etib tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

“Har bir ishning boshida tarbiya turadi. Bu borada matabning, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichining o‘rni beqiyosdir. Bolalikda berilgan tarbiya, shakllantirilgan fazilatlar kelajakda barkamol avlodni voyaga yetkazishda poydevor bo‘ladi.”<sup>1</sup>

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning nazariy asoslarin. Bular:

### **- Axloqiy fazilatlar tushunchasi va ularning tarbiyadagi o‘rni**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari — shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichida turadi. Bu davrda axloqiy fazilatlar: halollik, mehr-shafqat, hurmat, vatanparvarlik,adolat, sabr-toqat kabi qadriyatlar asosida bola shaxsini shakllantirish zarur. Shu bois, axloqiy tarbiya — faqat ma’naviy bilim berish emas, balki ongli, faol, mustaqil fikrlovchi shaxsni voyaga yetkazish vositasidir.

### **- Ijodiy faoliyat va uning tarbiyaviy imkoniyatlari**

Ijodiy faoliyat – bu bolalarning erkin fikrashi, o‘z fikrini ifoda etishi, tasavvurini boyitish imkonini beruvchi jarayondir. Rasm chizish, hikoya tuzish, rolli o‘yinlar, qo‘g‘irchoq teatrлari va dramatik mashg‘ulotlar orqali

<sup>1</sup> Sh. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, 2022-yil 26-avgustdagи nutqidан, rasmiy nutq.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o‘quvchilarning ijobiliy fazilatlarini singdirish osonlashadi. Bu usullar ularning qalbiga bevosita ta’sir qiladi.

Shuningdek, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirishda mavjud muammolar:

- Axloqiy tarbiya va ijodiy faoliyatga yetarli e’tibor berilmayapti – ko‘plab maktablarda dastur asosan akademik bilimlarga yo‘naltirilgan.
- O‘qituvchilarning metodik bilim yetishmasligi – aksariyat pedagoglar ijodiy faoliyatni faqat darsdan tashqari mashg‘ulot deb hisoblaydi.
- Ota-onalar bilan hamkorlik yetarli emas – axloqiy tarbiyada oilaviy muhit bilan uzviy aloqa yo‘q.
- O‘quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik va virtual axloqiy inqiroz – bu esa real qadriyatlarga befarqlikni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi Muammolarning yechimlari:

Ijodiy faoliyatni dars jarayoniga integratsiya qilish – masalan, ona tili yoki hayot xavfsizligi darslarida rolli o‘yinlar va hikoya tuzish orqali axloqiy tushunchalarni singdirish.

- O‘qituvchilarga malaka oshirish kurslarida ijodiy metodlarni o‘rgatish.
- Ijodiy klublar, dramalar, maktab ichki teatrлari tashkil qilish orqali bolalarda ijobiliy his-tuyg‘ularni rivojlantirish.
- Ota-onalar bilan seminar-treninglar o‘tkazish va ularni bolalarning axloqiy rivojiga faol jalg qilish.

Qo’shimcha qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini ijodiy faoliyat orqali shakllantirishda xorijiy tajribalarini misol keltiradigan bo’lsak:

**Finlandiya tajribasi:** Finlandiyada boshlang‘ich ta’limda “axloqiy dilemmalar” orqali bolalarga turli vaziyatlarda qanday qaror qabul qilishni o‘rgatishadi. Bu esa mustaqil fikrlash va ijobiliy qadriyatlarni tanlashga o‘rgatadi.

**Yaponiya tajribasi:** Yapon maktablarida har kuni alohida “axloqiy tarbiya darsi” bo‘lib o‘tadi. Unda hikoyalar, hayotiy vaziyatlar tahlili, ijtimoiy roller

orqali fazilatlar singdiriladi.

**Angliya maktablari:** O‘quvchilar haftalik “Value of the Week” (Haftaning qadriyati) mavzusi asosida rasm chizish, esse yozish, sahnalaştirish orqali biror axloqiy tushunchani amalda o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirish – bu jamiyatimizning barkamol, ma’naviy yetuk, ijtimoiy faol avlodini tarbiyalashning poydevoridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijodiy faoliyat bu jarayonda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ijodiy yondashuv bolalarda nafaqat tafakkur va tasavvurni, balki ijobiy xislatlarni – mehr-shafqat, halollik, do’stlik, sabr-toqat, vatanparvarlik kabi axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. Mazkur sohada hali ham bir qator muammolar mavjud: o‘qituvchilarning metodik savodxonlik darajasi, ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi, zamonaviy texnologiyalarning ijobiy-salbiy ta’sirlarini nazorat qilish muammolari shular jumlasidandir. Bu muammolarni bartaraf etish uchun dars jarayoniga ijodiy metodlarni tatbiq etish, xorijiy ilg‘or tajribalarni joriy etish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va pedagoglarning malakasini oshirish zarur. Finlandiya, Yaponiya va Angliya kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, axloqiy tarbiya samaradorligi ijodiy va amaliy yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liq. Shunday ekan, biz ham shu yo‘ldan borib, har bir bolaning qalbida ezgulik urug‘larini qadashimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi. 2022-yil, 26-avgustdagи nutqi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ma’rifat va taraqqiyot yo‘lida, 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020.
3. Xasanboyeva N. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: “Fan”, 2021.
4. Tolipova N.Q. Axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

5. UNESCO. Education for Sustainable Development: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017.
6. Halstead J.M., Taylor M.J. Values in Education and Education in Values. – London: Routledge, 2000.
7. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Basic Education 2014.
8. Japanese Ministry of Education. Moral Education in Elementary Schools. – Tokyo, 2016.
9. Ofsted (UK). Developing character and moral education in schools. – London, 2019.